

**Sofiya JUMAYEVA,**

Toshkent viloyati Chirchiq davlat  
pedagogika instituti tillar kafedrası mudiri,  
filologiya fanlari nomzodi

## NAVOIY SHE'RIYATIDA RAQAM VA TASVIR MUTANOSIBLIGI

Insoniyat aql-idroki, tafakkur va xayolotining muhim un-suri sifatida raqamlar badiiy adabiyotda o'ziga xos o'ringa ega. Shunisi qiziqki, raqamlarga ham ramziy ma'no yuklanib, u ijodkordan yuksak mahorat talab qiladi. Masalan, Muhammad Rizo Ogahiy o'z ruboiylarida raqamlarning shunday tizimini keltiradi:

*O'n aql, to'qqiz sipehr-u sakkiz jannat,  
Ham yetti muniri axtar-u ham olti jihat,  
Ham besh his-u to'rt unsur-u uch mavlad,  
Ham ikki jahon bir senga aylar xizmat.*

Ushbu misralarda birdan o'ngacha bo'lgan raqamlar zamiridagi ma'no orqali shoir maqsadi yoritilgan.

Raqamlarning haqiqatlari bilan qiziqish, ularning ramziy-majoziy ma'nolarini she'rda ifodalash tajribasi ilmsiz amalga oshmagan, albatta. Chunki mumtoz poetika qonun-qoidalari va talablariga rioya qilmasdan biror raqamga daxldor mazmuni ta'sirli shaklda tasvirlashning iloji yo'q. Mumtoz shoirlarimiz ijodiyotida raqam sir-larini yoritishda ham, raqamga tayanib ruhiy holat yoki haqiqatlarni o'ziga xos rang va manzaralari bilan gavdalan-tirib berishda ham mubolag'a, tazod, takrir, tajnis, ruju' kabi o'nlab badiiy san'atlardan unumli foydalanilgan.

Agar raqam tatbiqi nuqtayi nazaridan mumtoz shoir-lar tajribalariga diqqat qilinsa, ular raqamlardan u yoki bu mavzu, ma'lum bir tushuncha va haqiqatga doir mazmuni ta'kidlash usuli sifatida foydalanganini kuzatish mumkin. Navoiyning quyidagi baytlariga e'tibor qarating:

*Zamon ahlin vafosiz debki, qildim dostonlar sabt,  
Navoiy bir kishida gar vafo topsang, so'roq o'rtay.'*

Ushbu baytda zamona ahlining vafosizligi, hech kimda va'daga vafo qilish fazilatining topilmasligi aynan bir raqami orqali ifoda etiladi. Quyidagi baytda ham "bir fatiri xom" birikmasi orqali mol-dunyoga ruju' qo'yimaslik, nafsoniy hoy-u havaslarga berilmaslikka da'vat bor:

*Bo'lma kun qursin tilab aflokdek sargashtakim,  
Bir fatiri xom bilan oson o'tar har kun maosh.*

(IV jild, 187-bet)

Ayrim o'rinlarda raqamlarni ketma-ket keltirish yo'li bilan fikr rivojlantiriladi:

*Ey Navoiy, so'z ila oncha guhar sochtingkim,  
Bahr-u kon kirdi qora yerga sening kilkingdin.  
Biriga yo o'nig'a, yo yuziga, yo mingiga,  
Degay el naylagay ortug' esa ellik mingdin.*

(V jild, 499-bet)

Davr va zamon bedodligidan shikoyat ohanglari eshiti-lib turgan quyidagi baytda ham raqamlar asosiy rol o'ynaydi:

*Navoiy, qilma ayb afg'on-u faryodki davrondin,  
Ne bir faryod-u o'n afg'onkim, yuz faryod-u ming afg'on.*

(V jild, 319-bet)

Alisher Navoiy "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi g'azal-laridan birida yozadi:

*Hajr o'qidinkim erur bag'rim aro yuz ming teshuk,  
Har teshuk bir ko'zdururkim holima hayron erur.*

(III jild, 319-bet)

Bunda "hajr o'qi"dan bag'ri tilingan oshiqning holati mubolag'a usulida sharhlangan. Biroq holatning qiynoqli va og'irligini "yuz ming teshuk" iborasisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ikkinchi misrada "yuz ming teshuk"ka yaqin bir ma'no yuklanadi, ya'ni ular "hajr o'qi" zarbidan paydo bo'lgan (ehtimol, ular o'ntadir, yuztadir yoki ko'proq-dir) oddiy teshik emas, balki "har teshuk bir ko'zdur". Bu "ko'z"lar esa oshiq holini idrok etishga qodir bo'lmaganligi uchun ham hayrondir. Oshiqning holi uning o'zi uchun hayronlik sababi bo'lganidek, sipehr uchun ham hayratli. Shuning uchun sipehr unga "yuz ming ko'z" bilan nigoh tashlaydi:

*Mungrayib andoq sinuq ko'nglum buzulurkim, sipehr  
Bul' ajab holimg'a yuz ming ko'z bila hayron bo'lur.*

(III jild, 145-bet)

Mumtoz she'riyatda raqam asos bo'lgan badiiy san'at-larda bir, ikki, uch, to'rtidan yuz minggacha bo'lgan raqam-larga duch kelinadi:

*Kirdi tufroqqa hilol, ochdi to'lun oyg'a jamol,  
O'n to'lun oyning qirog'idin chu olding o'n hilol.*

(VI jild, 254-bet)

Alisher Navoiyning ushbu baytida ma'shuqaning to'lin oyga o'xshab husn-jamoli ochilgani ta'riflangan. Lekin shoir ta'rifda "o'n" raqamiga tayanib, hilol shunchaki to'lin oyga aylanmadi, balki "o'n to'lun oyning" chetidan olingan o'n hilol go'yoki birlashdi, deydi. Bu esa o'quvchida taasurotning kuchayishini ham ta'minlaydi.

*Firoqi o'qidin bo'lmish teshuk-teshuk bag'rim,  
Bu turfaroqki, bir o'qindurur har ikki teshuk.*

(V jild, 239-bet)

Firoq o'qqa qiyos qilinib, yor firog'i ko'ksimni "teshuk-teshuk" qildi, deydi lirik qahramon va keyingi misrada mubolag'aning ig'roq turidan foydalangan holda "bir o'q"dan "ikki teshuk" paydo bo'ldi, degan fikrni ifoda etadi. Navoiyning boshqa bir baytiga nazar tashlaylik:

*Ey, ko'ngulda shahdi la'ling hasratidin yuz teshuk,  
Har teshukdur shahd zanburi uyi yanglig' chuchuk.*

(III jild, 271-bet)

Shoir demoqchiki, sening la'ling nihoyatda shirin. Uning hasratidan ko'ngulda "yuz teshuk" paydo bo'ldi. Bal-

ki uning soni yuzmas, undan ko'pdir? Ikkinchi misradagi fikr ushbu raqamning nisbiy ekanligiga she'rxonni ishontiradi. Asalari uyasining teshiklari sonini sanash hech kimning xayoliga kelmaydi. Chunki ular bir necha yuzga yetishi mumkin. Biroq har birida asal bo'ladi. Oshiqning ko'ngli ham shunga monand, shu boisdan u "shahd zanburi uyi yanglig' chuchuk"dir.

Lirik qahramonning ruhiy holatini yorqin namoyish qilish raqamlar vositasida ifoda etiladigan fikrlar orqali ham amalga oshiriladi:

*Dardi ishqimdin suvol etti ul oy, faryodkim,  
Yuz javobim boru yo'q hushim demakka bir javob.*  
(IV jild, 312-bet)

Ma'shuqaning ishq dardi to'g'risida bergan savoliga oshiqda yuzlab javoblar bor, ammo shulardan loqaqal bittasini ham aytolmaydi. Chunki bunga uning kuchi, ishtiyoqi – hushi yo'q.

Ma'lumki, hayot har turli ziddiyat va qarama-qarshiliklar zaminida ilgariylaydi va rivojlanib boradi. Inson hayoti va taqdiri ham qarama-qarshiliklarga to'la. Shu bois badiiy san'atlar orasida ham bevosita qarama-qarshi fikr, faoliyat va tushunchalarni aks ettirishga xizmat qiladiganlari bor. Tazod – shunday san'at.

Aslida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan raqamlar yo'q, ular miqdor, sanoq jihatdan kam-ko'plikni anglatishiga ko'ra farqlanadi. Ammo mumtoz she'riyatimizning ko'zga ko'ringan siymolari raqamlarga tayanilgan obrazli tasvirlarida ham qarama-qarshi fikrlarni ilgari surganlar va bunda raqamlar tazodiy xarakter kasb etgan. Bir-biriga zid tushunchalarni ifoda etishda birikma shaklida keltirilgan bir va yuz, bir va ming, bir va yuz ming raqamlariga murojaat qilingan. Bunday o'rinlarda bir raqami yakka, tanholik, yagonalik va kamlik ma'nolarida; yuz, ming, yuz ming raqamlari esa ancha ko'p, hadsiz, hisobsiz ma'nolarida ishlatilgan. Fikrimizning isboti sifatida quyidagi misollarni keltiramiz:

*Zulfining bir torina ming jon olur erdi, vale  
Fikr etar go'yoki narxi mushk arzon bo'lmasun.<sup>2</sup>*

Yoki:

*Ikki yodur qoshida payvasta ming novak bila,  
Ne ajab har bir nazarda qilsa yuz qurbon ko'zung.<sup>3</sup>*

Bunda zulf yoki sochning "bir tori" "ming jon"ga, "bir nazar" "yuz qurbon"ga zid qo'yilgan.

*Qilsam nasihatni senga "qon to'kma" deb so'ktung  
meni,  
Har bir so'kunchung o'rnida yuz ming duo bo'lsun  
sanga.<sup>4</sup>*

Baytdagi "har bir so'kunch"ga "yuz ming duo" bilan javob qaytarilishi oshiqning sidq-u sadoqatini nihoyatda ishonchli va samimiy ohangda aks ettirgan. Alisher Navoiy devonlarida mazkur usulda yaratilgan baytlar bisyor va ularning deyarli har biri o'quvchida yangi fikr, yangi taassurotlar uyg'otishga qodir:

*Halokim vasl aro mingdir bir etting,  
Ki, bergay tengri bir yoshing'ga ming yosh.*  
(III jild, 206-bet)

Yoki:

*Tiyra firoq tunlari sharhini ayt, demakim,  
Ming kecha deb tunganmagay bir kechaning fasonasi.*  
(III jild, 478-bet)

Bu so'zlarni o'qib beixtiyor "Ming bir kecha" afsonalari xotirga keladi. Biroq firoq tunlari "sharhi" arab afsonalariga o'xshamaydi. Chunki "bir kechaning" fasonasini ming kechada aytib ado qilish mumkin emas.

So'z ma'no-mohiyatini ta'kidlab ko'rsatish lafziy san'at turlaridan bo'lgan takrirning asosiy xususiyatidir. Navoiy ijodida raqam takrori vositasida ular zamiridagi ma'no-mohiyatni to'laqonli aks ettirish, shuningdek, ayni shu raqamni ifoda etgan so'zning ham emotsional ta'sir kuchini oshirishga erishiladi. Buni "Lison ut-tayr" dostonidan olingan quyidagi bayt misolida ko'rishimiz mumkin:

*Bir bo'l-u bir ko'r-u bir de, bir tila,  
Mayl qilma munda ikkilik bila.*  
(XII jild, 234-bet)

Baytda bir raqamning bir misrada to'rt marta aynan takrorlanishi natijasida shoirning "bir" raqami zamiridagi mohiyatni ta'kidlash maqsadini sezish qiyin emas. Bunday misollarni shoir g'azallaridan ham keltirish mumkin:

*Ikki gul vaqtidur-u, ikki quyosh davronidur  
Kim, ko'ngulda ul iki oraz g'ami hijronidur.*  
(III jild, 157-bet)

Bu baytda ikki raqami aynan takrorlanib, takrir san'atining yuzaga kelishiga xizmat qilmoqda.

Ma'lumki, she'rda ma'no jihatdan har xil, ammo shaklan bir xil so'zlarni qo'llash tajnis san'ati deyiladi. Raqamlar vositasida tajnis yaratish va shu orqali ma'lum bir fikr, lavha yoki timsolni ta'sirchan ifodalash ham ijod tajribasida ko'p uchraydi. Ahmad Yassaviy hikmatlaridan birida:

*Qul Xoja Ahmad qirqqa kirding, nafsingni qirq,  
Munda yig'lab, oxiratda bo'lg'il oriq, –*

deyiladi. Baytdagi qirq so'zi shaklan bir xil bo'lsa-da, lekin ikki xil ma'noni bildiradi: birinchi qirq so'zi yosh (raqam)ni ifodalasa, misra oxiridagi qirq so'zi "kes", "o'ldir" mazmuniga ega. Bundagi so'zlar shaklan bir xil bo'lganligi sababli tajnisi tomni, ikki xil so'z turkumiga (qirq – son, qirq – fe'l) mansubligi uchun tajnisi mustavfiyni hosil qilgan. Raqamlar vositasidagi tajnislarda aksariyat hollarda yetti, yuz raqamlari asos bo'lgan. Masalan, Gadoiyning quyidagi baytda yetti so'zi bir misra ichida ikki marta takrorlangan bo'lib, birinchisida yetti – yetdi (fe'l), ikkinchisida yetti – raqam (son) ma'nosini anglatgan:

*Chun gasht uchun otlanding, ayo sarvi ravonim,  
Yetti yetti gardung'a mening oh-u fig'onim<sup>5</sup>.*

Navoiy she'riyatida "yuz" so'zi yordamida tajnis yaratilganligi ko'proq ko'zga tashlanadi. Masalan:

*Istasa vaslin ko'ngul ko'z rashkdin qon yosh to'kar,  
Ko'z yuzin ko'rgach, ko'ngul yuz nola g'ayratdin qilur.*  
Yoki:

*Soqiyo, ochting chu may tutmaqqa jomi Jam yuzin,  
Yuz g'amim daf' ayladingkim, ko'rmagaysen g'am  
yuzin.*

Ushbu misralarda lirik qahramon soqiyga murojaat qilib, jomi Jam yuzini ochib, menga may uzatding, bu mayni ichib, mening "yuz g'amim" daf bo'ldi, shuning uchun sen g'am yuzini ko'rma, deya uni sharaflaydi. Baytda uch o'rinda yuz so'zi keltiriladi, birinchi va ikkinchi misra oxirida radif bo'lib kelayotgan "yuz" so'zlari bet ma'nosini anglatayotgan bo'lsa, ikkinchi misra boshida raqam,

miqdor ma'nosini bildirmoqda. Shuningdek, ushbu baytda qorishiq san'atlar qo'llanganligini ham ko'ramiz. Baytning ikkinchi misrasi boshida kelgan "yuz g'amim" misra oxirida "g'am yuzi" shaklida o'rni almashtirib qo'llangan. Bu "tardu aks" san'ati sanalib, so'zlarning o'rnini almashtirish natijasida ularning ma'nosi ham o'zgaradi, misra mazmuni takomillashadi. Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida ham ana shu san'at asosida yaratilgan baytda raqamlar asosiy rol o'ynagan:

*Men dog'i mingdin birin aylay bayon,  
Sizga birdin minggacha aylay ayon.*

Xullas, badiiy san'atlar raqamlarni "tilga" kiritish, raqam vositasida ifodalangan ramziy-majoziy ma'nolarni to'g'ri aniqlash va talqin etishda tajribada sinalgan eng ishonchli usul bo'lgan. Shuning uchun ham mumtoz adabiyotimiz vakillari ularning ko'pchiligini ilhom va mahorat bilan tatbiq etganlar.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami (MAT). Yigirma jildlik. 4-jild. T.: Fan, 1989. 444-bet. (MATdan olingan keyingi misollar jildi va sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi.)
2. Hayot vasfi. T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. 131-bet.
3. Atoiy. Devon. T.: Fan, 2008. 134-bet.
4. Yuqoridagi asar. 29-bet.
5. Hayot vasfi. T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. 606-bet.

**Adiba YUSUPOVA,**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti qoshidagi  
Shayxontohur akademik litseyi  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

## "SABOT UL-OJIZIN" ASARIDA BADIY SAN'ATLAR

So'fi Olloyorning "Sabot ul-ojizin" asari turkiy tilda yozilgan bo'lib, fors-tojik tilida bitilgan "Maslak ul-muttaqiyin" asarining qayta ishlangan nusxasi hisoblanadi. Mazkur asar kitob shaklida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent, Boku, Qozonda ko'p martalab nashr etilgan.

"Sabot ul-ojizin" asari diniy-ma'rifiy asar bo'lib, unda ko'plab payg'ambarlar, mashhur avliyolar nomi tilga olinadi va ularga ta'rif beriladi:

*Nechukkim, tutdi to'fon dasht-u tog'i  
Va lekin bo'lmadi ho'l Nuh ayog'i.<sup>1</sup>*

Nuh (a.s.) payg'ambarlarimizdan biri bo'lib, Nuh to'foni voqeasi bilan tanilgan timsoldir.

*Sulaymonkim, igurdi ins-u jindin,  
Ani farmoni erdi bir nigindin.*

Sulaymon – yahudiy va xristian diniy adabiyotlarida Solomon nomi bilan ma'lum bo'lgan Dovudning o'g'li. Rivoyatlariga qaraganda, u uzugi orqali barcha jonzotlar bilan gaplasha olgan.

Yuqoridagi baytlarda shoir **talmeh** san'atidan mohirona foydalanadi. Talmeh orqali ko'plab avliyo va payg'ambarlar nomi tilga olinib, ularning ko'rsatgan mo'jizalari ta'riflanadi.

Quyidagi baytlarda esa **tazod**, ya'ni qarshilantirish san'atining go'zal namunalarini uchratamiz. Bu holatni baytlardagi "ortuq" va "kam", "jannat" va "do'zax", "o'ng" va "chap" so'zlari misolida kuzatishimiz mumkin.

*Suyuklik bandasi to bo'lsa mahram,  
Bo'lur qo'rqinchi ortuq, shirati kam.*

Yoki:

*Agar jannat bilan do'zaxni avsof  
Qilurg'a jam bo'la kof to kof.  
Qilur qattiq takallum o'ng ishing chap,  
So'zing tiklab ko'ngil buzg'uncha tiklab.*

Shoir mazkur asarida **istiora** san'atidan ham unumli foydalanagan. E'tiborni misollarga qaratamiz:

*Ochilg'aysan oni ko'rganda guldek,  
Tavoze' ayla xizmatkor guldek.*

*Sarig' yog'dek anga bo'lg'il muloyim,  
Suchuklikni asaldek ayla doim.*

"Ikki mo'min bir-biriga xayr qilmoqlikning bayoni"dan olingan yuqoridagi parchada imon-e'tiqodli insonga "guldek", tavozeda "quldek", muomalada "yog'dek", shirinlikda "asaldek" bo'lmoqlik borasida aytilgan fikrlar mujassam.

So'fi Olloyor betakror so'z o'yinlaridan, ya'ni **tajnsidan** ham unumli foydalanagan:

*Kishi sanchiq so'z aytsa, san chiq andin,  
Yamondin qoch, yamondin qoch, yamondin.*

Yoki:

*Haram oz bo'lsa ham ko'pdir yomoni,  
Samoni bo'lsa ham bilgil sam oni.*

Shuningdek, shahar nomlarining qo'llanishi orqali ham shoir **talmehning** betakror namunalarini yaratgan:

*Yugursang kulda bir kadu uchun chang,  
Buxorodin yugursang to Samarqand.*

*Badaxshondin ko'tarsang O'sh sari tosh,  
Bahosi Balx ichida bo'lsa bir mosh.*

Bu o'rinda ta'magir insonning illatlari qoralanadi.

Shoirning badiiy mahorati shundaki, u so'zning kuchi, zalvorini, ma'no qirralarini yaxshi biladi va undan mohirona foydalanib so'z o'yinlari qila oladi. Shoir uchun so'z shunchaki ifoda uslubi emas, balki inson qalbiga eltuvchi betakror yo'l. Bu yo'l ilohiy qudrati ila uni faqat ezgulik yo'luga, haq yo'luga eltuvchi, bugungi kunini shunchaki yashamay, balki undan unumli foydalanish imkonini beruvchi bir sinovdir.

*Bu sinovdan hamma ham o'ta olarmikan?!  
Bu uning iymoni, vijdoni va irodasiga bog'liq.*

Aytish joizki, So'fi Olloyor nafaqat diniy-ma'rifiy bilimlar sohibi, balki u shoir sifatida ham o'z so'ziga, mahoratiga ega bo'lgan ijodkor. Uning "Sabot ul-ojizin" asarida qo'llangan badiiy san'atlarga e'tibor berar ekanmiz, shoir ulardan poetik maqsadini ifodalashda o'rinni foydalanaganligiga guvoh bo'lamiz.